

“XAMSA” DOSTONLARI NA’T BOBLARINING ISLOM TARIXI BILAN MUTANOSIBLIGI

Sharofova Maxliyo Shokirjon qizi

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning “Xamsa” asari va uning tarkibidagi na’t boblarining islom tarixi bilan mutanosibligi yoritib berilgan. Tadqiqotning maqsadi doston tarkibidagi hamd va na’tlarni tahlil qilish orqali ularning dostonidagi o‘rnini belgilash hamda sharq klassik adabiyoti na’munalarini hamd va na’tlarsiz to‘laqonli tushunib bo‘lmasligini isbotlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: na’t, Muhammad payg‘ambar, islom tarixi, Me’roj voqeasi

PTOPOTION OF NAT CHAPTERS OF “KHAMSA” EPIC WITH ISLAMIC HISTORY

ABSTRACT

His article was highlighted by the work of Alisher Navoi’s great thinker Alisher Navoi’s work and his Nat chapters with Islamic history. The purpose of the study is to prove their place in the analysis of prent and services in the epic and that Eastern classical literature is not fully understood without full understanding.

Keywords: Nah’t, Muhammad Prophet, Islamic History, Meroj Event

Bugungi adabiyotshunoslikning umuminsoniy masalalaridan biri o‘zbek adabiyoti, xususan, Navoiy ijodida o‘ziga xos o‘rin tutgan nubuvvat mavzusi talqini hisoblanadi. Hozirgacha adabiyotshunoslik lug‘atlarida nubuvvat (payg‘ambarlik ta’limoti) tushunchasi mazmun-mohiyatini to‘liqroq izohlaydigan biror sharh ko‘zga tashlanmaydi. U qadimgi yahudiy va arab tillarida “nabi” (xabar) ma’nosini bildirib keladi, mohiyatan esa nihoyatda keng qamrovli tushunchadir. Nubuvvat masalalari talqini yuzasidan jahon va rus adabiyotshunosligida ancha samarali tadqiqotlar olib borilgan. Hatto profetologiya (“prorok” – payg‘ambarlik, “logos” – ta’limot) adabiyot ilmi tarkibiy qismi sifatida qaraladigan o‘rinlar ham uchraydi.¹ Sharqshunos E. Bertels tasavvufsiz Sharq mumtoz adabiyotini anglab bo‘lmasligini ta’kidlagan edi. Xuddi shunday, nubuvvat ma’rifatisiz tasavvuf adabiyotining o‘zini ham anglash mushkuldir.

¹ Гимаева, АделяРавилевна. Профетология Корана: истории пророков как элемент построения коранического текста. Авт. канд. дисс. по филол. наук. – Москва: 2008. – 24 с.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyotining shakllanishi, maqom va ifodalarining vujudga kelishi, klassik she'riyat mavzular ko'lamining teranligi, tasvir ifodalari boyligi, obraz – timsollar rang-barangligi va boshqa masalalar bevosita nubuvvat bilan ham bog'liqdir. Buni Alisher Navoiy ijodi yaqqol asoslab beradi. Aynan mutafakkir ijodida nubuvvat mavzusi badiiy talqinlari o'zining barcha jihatlari bilan namoyon bo'lgan. Shoir ijodida nubuvvat ma'rifati, birinchidan, mavzuni xos adabiy janr-shakllarda bevosita tasvir etgan ijod namunalarida, ikkinchidan, barcha xil va tur asarlari tarkibidagi bevosita talqinlarda ifoda etilgan. “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Xamsa” dostonlari va “Lison ut-tayr”dagi na't, me'rojnomalar, madhiyalar, vasflar, shuningdek, na't g'azallarni birinchi guruhga kiritsak, lirikasidagi mavjud janrlar va umuman barcha tur asarlaridagi kichik parchalar va satrlarni esa ikkinchi xil talqin deyib baholash mumkin. Nubuvvat masalalari talqinida asar hajmi emas, balki mohiyat muhim o'rin tutadi. “Tarixi Tabariy”(Muxammad ibn Tabariy), “Qisas ul-anbiyo”(Ibn Kasir), “Qisas ar-Rabg'uziy”(Rabg'uziy) kabi asarlardan “Tarixi anbiyo va hukamo” asari xarakter xususiyatlari bilan farqlanadi. Sharqda “Qisas ul-anbiyo”lar tarixiy va badiiy xarakterga ega bo'lganligi ma'lum. Nubuvvat tarixiy talqinlarda ixchamroq, ba'zan bir yoki bir necha fabulalar asosida ham yaratilgan.¹

Sharq manbalarida, “nubuvvat – tavhid yo'li”, “islom – barcha payg'ambarlar dini” sifatida talqin etiladi². O'zbek adabiyotida nubuvvat madhiyalar tavsifida tavhidga tayaniladi. Shu bois dastlab tavhid talqiniga e'tibor qaratildi. At-tavhid – arabcha “vahhada” fe'lidan olingan bo'lib, “yakka-yagona deb bilmoq”, “bir deb anglamoq” ma'nolarida qo'llaniladi. Tasavvufda tavhid insoniy irodaning ilohiyotga qo'shilishi, Haqqa fanolik (hulul ul-Haq), Haqdan boshqa borliq yo'qligi maqomi tushuniladi. Ibn Arabiy tavhid mushohadasi asosida vahdat al-vujud falsafasiga asos soladi. Tavhidga binoan, Alloh abadiy mavjud, ibtido va intihosiz, yaratilmagan, yaratilganlarga o'xshamaydi, zamon va makonga bog'liq emas, osmonga chiqish ham, yerga tushish ham unga yaqinlashtirmaydi, U barcha narsa va hodisalarga yaqin, insonga jon tomirlari qadardir (“Biz unga jon tomiridan ham yaqinroqmiz”, “Qof” surasi). U o'zi yaratadi, kashf qiladi, barcha narsa-hodisalarni biladi, “qorong'uda qora toshda yuruvchi qora chumoli”ni ham ko'rib turadi. “Agar siz oshkora gapirsangiz ham (va yoki xufyona gapirsangiz ham U zotga barobardir). Zero, U sirni ham, eng maxfiy narsalarni ham bilur” (“Toha” surasi). Hech bir hodisa irodasidan tashqarida sodir bo'lmaydi, qarorlari o'zgarmas, “biluvchi, eshituvchi, ko'ruvchi”(“Haj” surasi)dir. Unga eshitilmas ovoz, ko'rinmas narsa yo'q. Qur'on, Tavrot, Injil, Zabur – elchilari orqali yuborgan so'zlari va borlig'i bunga dalildir. Nubuvvat tavhid haqiqatlarini

¹ Усмон Қобилов. Алишер Навоий ижодида нубувват мавзуси талқини. Мақола, 2018. Navoiy va XXI asr

²Раҳматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир (Қуръони Каримда пайғамбарлар сиймоси). 1. 2 китоб. – Тошкент: “Мовароуннаҳр” 2005 йил

namoyon etadi. U “xabar-vahiy” ma’nosida ishlatiladi. Vahiy so’zi “inmoq”, “tushmoq” ma’nolarini bildiradi.¹

Alloh taolo barcha mavjudotlardan avval komil inson – Muhammad Mustafoning nurini yaratgan ekan, demak, kamolotga intilish, hayvoniy hislatlardan poklanib, makorimi axloq – go’zal xislatlar bilan ziynatlanish va xotamul-anbiyo kabi yashash har bir insonning bu dunyodagi eng oliy maqsadi bo’lmog’i zarur. Alisher Navoiyning o’z ijodida Muhammad payg’ambar siymosini yaratishi ham odamlarni ana shunday oliy maqsad va ulug’ g’oya sari chorlashning o’ziga xos ifodasidir.

“Xamsa” tarkibidagi dostonlarda hamddan keyin na’t beriladi. Na’tlarda Payg’ambar alayhissalomning siyratlari, sunnatlari u zot bilan bog’liq voqealar nazarda tutilib, baytlar yoziladi. Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning vasflarini alohida bob qilinishi ul zotning buyuk shaxs ekanliklaridan darak beradi.

“Hayrat ul-abror” dostonining oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to’qqizinchi, o’ninchi boblari na’t boblar sanaladi. Jami 5ta na’t bobi mavjud bo’lib, birinchi na’tda Muhammad alayhissalomning tug’ilishlari, olamlarga rahmat payg’ambar ekanliklari berilgan. Bundan tashqari yan Nuri Muhammadiyaga ham to’xtalib o’tib bu nur dastavval Odam Atoga, so’ng Momo Havvoga undan so’ng Shis alayhissalomga va ularning barcha avlodlariga o’tgani oxiri payg’ambarimizning otalari Abdullohdan Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga o’tgani haqida so’z boradi. Shu jihatdan Odam alayhissalom ul zotga ham ota, ham o’g’il ekanliklari, otalarining ismlari Abdulloh bo’lgani aytiladi:

Nurunga tob ikki jahondin burun,
Har ne yo’q andin burun, andin burun.
Topdi azal subhi chu bazming charog’,
Ne tong agar yorusa yuz ming charog’.
Bo’ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o’g’ul, so’ngra gar o’lsa ato².

Ikkinchi na’tda Hazrat Navoiy Muhammad sollallohu alayhi vasallamning vasflarini yana keltirar ekanlar tug’ilishlari, yoshlik chog’lari haqida so’z boradi. Savdo ahli ularga ergashib, “u minib ketayotgan tuya bundan ham xursand, go’yoki farishta ustiga ustiga nur yog’ilayotganday, shundan kelib chiqib savdo ahli unga “Amin” laqabini berib, shu sababdan u Jabroilga hamdam bo’lib qoldi”³ deb ta’rif berilgan.

¹ Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV- XV асрлар). Филол. фан. бўйича фал.докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017. –14 б.

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

Ko‘z tutub el na’fu basorat anga,
Ummat etib, sudu tijorat anga.
Noqag‘a markablig‘idin ko‘p surur,
O‘ylaki tushganda malak uzra nur.
Deb laqabin ahli tajammul Amin,
Andin o‘lub hamdami Ruhul-amin.¹

Uchinchi na’tda keltirilishicha, “kofir xalqining “Manot” degan buti bo‘lib, sen uni bo‘ynidan sindirganingdan so‘ng u “mot” bo‘ldi – yengildi. Sen kufr boshini kesish bilan o‘z qahringni ko‘rsatding. Boshi shukuhdan ajralganidan keyin, gavdasi boshsiz qoldi” deb ajoyib so‘z o‘yini qilingan:

Kufr eliga ulki bore di manot,
Bo‘ynini sen sindiribon bo‘ldi mot.
Kufr boshin ke sting etib qahr fosh.
Boshig‘a far qolmadi, jismig‘a bosh.²

To‘rtinchi na’tda Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning mushriklar, kofirlar bilan bo‘lgan voqealari baytlarda o‘z ifodasini topadi. Shundan so‘ng islom tarixida Ul zot bilan bo‘lgan mo‘jizalarga ishora baytlar beriladi:

Panjayi islom chu mahkam solib,
Kufr eti qo‘rg‘onidin xums olib,
Dema ilik, tig‘eki bir bormog‘i,
Oyni ikki bo‘ldi ishora chog‘i,
Tong emas ar ul kafi mo‘jiznamoy,
Qilg‘ach ishorat iki ayrilsa oy.
Noqasi yer uzra chu raftor etib,
Har izi “shaqqol-qamar” izhor etib.

Alloh taolo o‘z payg‘ambarini bir mo‘jiza ila qo‘lladi. Oyning yorilishini ul zotga mo‘jiza etib berdi. Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Makka mushriklari Muhammad payg‘ambardan haqiqiy payg‘ambar ekanliklariga dalil sifatida hujjat mo‘jiza ko‘rsatishni so‘radilar. Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam) duo qildilar, Alloh taolo U kishining duolarini ijobat qildi – oy ikkiga bo‘lindi, ikki bo‘lakning orasida Hiro G‘ori ko‘rinib turardi. Ushbu baytlarni keltirishi, ulardagi ma‘noni ulkan saviyada ochib bera olishi hazrat Navoiyning ulkan ilmiy va diniy salohiyatidan darak beradi.

Imom Ahmad Jubayr ibn Mut‘amdan shunday rivoyat qilinadi: “Nabiy alayhissalomning vaqtlarida oy yorilib ikkiga bo‘lindi. Bir bo‘lagi manabu tog‘ning

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

ustida, yana bir bo‘lagi anabu tog‘ning ustida ko‘rindi. Mushriklar: “Muhammad bizni sehrlab qo‘ydi”, - deyishdi. So‘ng ular: “Bizni sehrlashsa ham barchani sehrlay olmaydi, musofirlar kelishini kutib turinglar”, - deyishdi. Musofirlar kelishgach, ulardan ham so‘rab ko‘rishganda, ular ham o‘yning yorilganini ko‘rishganini aytishdi. Shunda mushriklar: “Muhammad hammani sehrlab qo‘ydi”, - deyishdi.” Ushbu voqeadan so‘ng Alloh taolo “Qamar” surasining avvalini tushirdi. Bu juda mashhur hodisa bo‘lib, o‘sha kechada bo‘lgan hamma o‘yning yorilishini ko‘rgan va mushohada qilgan.¹ Alisher Navoiy ham o‘sha mashhur voqeani “Xamsa”ga kiritgan. Yuqoridagi baytning davomida mushriklarning zulmiga uchrab, Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) va Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhaularning tog‘da qolishlari aks ettirilgan:

Qo‘ydi chu ul dom ila dona g‘or,
Ko‘rki ne davlat qushin etti shikor.
G‘orda yori bila ul tez xush,
Tog‘ ichda o‘ylaki oltin-kumush.
Kufr chu e‘loyi libo aylabon,
Nusrat uchun ding‘a duo aylabon.²

Abdulloh ibn Abbos (roziyallohu anhu)dan Ahmad ibn Hanbal quyidagi rivoyatni keltiradilar: “Quraysh bir kecha makkada mashvarat qildi. Kimdir: “Ertalab Muhammadni ushlab, bog‘lab qo‘yinglar”, dedi. Boshqalari esa: “Yo‘q, uni o‘ldirish kerak”, deyishdi. Ba‘zilari: “Makkadan chiqarib yuboringlar”, deyishdi. Alloh taolo buni bildirdi. Hazrati Aliy Rosullohning to‘shaklariga kirib yotdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) esa Makkadan chiqib, Savr g‘origa yetib bordilar. Mushriklar Aliy (roziyallohu anhu)ni Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam) deb o‘ylab, kechasi bilan poylab chiqishdi. Ertalab yopirilib kirib, Aliyni ko‘rganlarida Alloh ularning makrlarini puchga chiqardi. Ular: “Og‘ayning qani?” deb so‘rashdi. Hazrati Aliy: “Bilmayman”, dedi. Ular Rosulullohning izlaridan axtarib ketishdi... Rosululloh o‘sha joyda uch kun qoldilar. Ul zot sheriklari hamrohligida makkadan chiqib, Savr goriga bordilar. Quraysh ularni yana ham jiddiyroq izlashga tushdi. Shunda Abu Bakr (roziyallohu anhu) shunday dedi: “Agar ulardan biri oyog‘ining ostiga qarasa, bizni ko‘radi”, dedilar. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): Uchinchilari Alloh bo‘lgan ikki kishi haqida nima gumon qilasiz? Mahzun bo‘lmang, Alloh taolo biz bilandir”,-dedilar³. Hazrat Navoiy yuqoridagi baytda mana shu voqealarga ishora qilar ekan, baytning davomida Muhammad alayhissalomga zulm bergan Abu Jahl, Umar kabilarning qismati azobli ekanligini, ikkinchisi yani Umarning duolari ijobat bo‘luvchilar qatoriga qo‘shilishi haqida yozilgan:

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 19-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

² Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

Kim ikki tandin birin et tojvar,
Biri Abu Jahlu birisi Umar.
Qismati avvalg'ining o'ldi azob,
Bo'ldi ikkinchida duo mustajob¹.

Beshinchi na'tda payg'ambar alayhissalomning Me'rojga chiqishlari, bir kechada Ka'badan Aqso masjidiga borib qolganlar bayon qilingan bo'lib, "aning subutig'a ikki sodiq guvoh bor", degan jumalalar keltirilgan. "Ikki sodiq guvoh"ning kimlar ekanligini bilish uchun islom tarixiga nazar tashlash lozim. Islom tarixida Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) bilan bog'liq mashhur Isro va Me'roj kechalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ularda keltirilishicha, hijratdan bir yil oldin Alloh taolo Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ni "Buroq" nomli otga mindirib, "Bayt ul-Maqdis"ga sayr qildirdi. U zotga Jabroil alayhissalom hamroh bo'ldilar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) u yerda nabiy'larga imom bo'lib namoz o'qidilar, so'ngra Alloh taolo u zotni osmonga ko'tardi. U yerda nabiy'lar bilan uchrashdilar. So'ng "Bayt ul-Ma'mur"ga, u yerdan esa "Sidratul-muntaho"ga ko'tarildilar.² Demak, "ikki sodiq guvoh" Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning otlari Buroq va Jabroil alayhissalomlar ekan.

Bob davomida yetti qavat osmonning har birida kimlar bilan uchrashganlari, bu bilan bog'liq voqealar bayon qilingan. Hazrat Navoiy Rosulullohning Me'rojga chiqqanlari va qaytib kelganlari bir onda yuz bergan bo'lib, aql bundan hayron ekanligini yozadilar va davomida "qancha ajoyibotlar va mo'jizalar ko'p bo'lsa, ularni idrok etishda aql ojiz bo'ladi. Uning chiqishi va qaytishiga ketgan vaqt kichikning kichigi bo'lib, bu fursat tahlilga arzimaydi" deb yozadi. Islom tarixiga nazar tashlasak, muhaddislarning rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) Ummu Xohi' bint Abu Tolibning uyida uxlab yotganida uyning shifti ochildi va Jabroil alayhissalom u zotni baytullohga olib chiqdi. Shu bilan Isro hodisasi boshlandi. "Buroq" nomli ulovga minib, "Bayt-ul Maqdis"ga bordilar. So'ng u yerdagi katta xarsangtosh ustida qubba-gumbaz qurilgan. Uning dumaloq gumbaz shaklidagi suratlari butun dunyoga tarqalgan. Ko'pchilik bilmaganlar uni Masjid ul-Aqso deb tushunadilar.³

Na'tning so'ngida Alisher Navoiy "bu baxtli safar tugab, qutlug' yo'lboshchi ruxsat oldi, Olam podshohi taxtiga o'tirib, Olam ishini intizomga solishda davom etdi"⁴, deb yozib, Me'rojga bag'ishlangan bobni yakunlaydi:

¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –T.:HILOL NASHR, 2015.

⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

Taxti uza olam shahi aylab maqom
Olam ishiga beribon intizom.
Shar'i tili noma bayozin o'qub,
Tig'i suyi kufr savodini yub.¹

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamd misralarida Qur'oni Karim oyatlariga to'liq va qisman berilgan ishoralarning mohiyatini ochib berish, na'tlarda ko'zlangan voqealarning islom tarixi bilan mutanosibligini yoritib berish orqali Alisher Navoiy ijodini to'g'ri va keng ma'noda tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1978-1988.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi 1-juz. –Т.:HILOL NASHR, 2015.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 19-juz. –Т.:HILOL NASHR, 2015.
5. Раҳматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир (Қуръони Каримда пайғамбарлар сиймоси). 1. 2 китоб. – Тошкент: “Мовароуннаҳр” 2005 йил
6. Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини(XIV-XV асрлар). Филол. фан. бўйича фал.докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017. –14 б.

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.